

UDK: 625.096

## XALQARO TRANSPORT KARIDORLARIDA AVTOMOBILLARDA YUK TASHISHDA MUOMMALAR

**Yusupov A.E.**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti dotsenti v.b.

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda yuklarni xalqaro karidorlarda tashish, eksport-import yuklarni avtomobil transportida tashish bilan shug‘ullanish dolzarb masalalardan beri bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizning logistik markazlaridan eksport qilinayotgan va xorijdan olib kiritilayotgan import tovarlarning hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Xalqaro yo‘nalishlarda davlat chegaralaridan o‘tishda avtomobil transportini ushlanib qolish muommalari davom etmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Xalqaro karidorlar, xalqaro yuk tashish, eksport-import yuklar, unimodal-multimodal-intermodal xalqaro tashishlar, evro talablar.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng iqtisodiy o‘zgarishlar hayotga izchil joriy etila boshladi. Chunonchi, avtomobil ishlab chiqarish sanoati yo‘lga qo‘yildi, yo‘l qurilish sohasi jadallashtirildi, shuningdek, chet el davlatlari bilan savdo aloqalari yuqori darajaga ko‘tarildi. Xalqaro savdo va yuk tashishlarni rivojlantirishda avtomobil transporti katta ahamiyatga ega. Mustaqil mamlakatimiz ravnaqi uchun shaharlarni shaharlarga ularshga, ellarни ellar bilan oshna qilishga, eng asosiysi, yuklarni manziliga yetkazish yo‘lida xizmat qilishga jazm qilganmiz. Avtomobil transporti tashishda eng ommabop tashish vositasi hisoblanadi.

Xalqaro avtomobillarda yuklarni tashishda transportni tartibga soluvchi hujjatlarni asosiy guruhlarga bo‘lish mumkin.

1.Xalqaro tashish uchun ruxsat etilgan transport vositalariga qo‘yiladigan talablar.

2.Yo‘llarda avtotransport vositalari harakatini tashkil etish va xavfsizligi qoidalari.

3.Xalqaro tashishlarni amalga oshiruvchi avtotransport vositalari haydovchilariga quyiladigan talablar va ularning ishini tashkil etish.

4.Xalqaro avtomobil tashuвларida chegara va bojxona nazorati qoidalari.

5. Xalqaro avtomobil transporti va unda ishtirok etuvchi transport vositalariga soliq solish.

6.Tashish jarayonida ishtirok etuvchi tomonlarning xalqaro tashish huquqlari, majburiyatlar va majburiyatlar shartlari.

Manashi qoida va talablarni aniq bajargandagina avtomobil transporti vositalarida xalqaro tashishni amalda oshirish mumkin.

Avtomobillarda xalqaro tashuvlar biror bir davlat chegarasini kesib o‘tganda bajariladi va aniq bir chegara va bojxona operasiyalari bilan bog‘liqdir. Xalqaro tashishda qo‘yidagi atamalar ishlatiladi.

**Unimodal** tashish bir turdagи transportda amalga oshiriladi. Odатда, transportirovkaning boshlang‘ich va oxirgi punktlari berilgan bo‘lib, logistika zanjirining oraliq operasiyalari bo‘lgan omborlash va yuklarni qayta ishslash operasiyalarisiz bajariladi.

**Multimodal tashishda** yuk egasi bitta shaxs (ekspeditorlik firmasi) bilan shartnoma tuzadi va u, ya’ni ekspeditorlik firmasi butun marshrut bo‘ylab transportning har xil turida harakatlanadi va yuk egasini boshqa transport korxonalari bilan shartnoma ishlarini olib borishdan xolos etadi.

**Intermodal tashishlar** yuklarni bitta yuk birligida (konteynerlar) yoki bir necha transport turidan foydalanib, transport vositasida yuk birligini qayta shakllantirmasdan harakatlanishidir.

Tovarlarni xalqaro tashishda transport xizmati bozorining shakllanishi milliy xususiyatlarini O‘zbekistonning hamda dunyoning ko‘p davlatlaridagi xalqaro yuk tashish bo‘yicha mavjud quyidagi uchta guruh aniqlab berdi:

- eksport-import tashishlar (aniq bir davlatda);
- xalqaro tranzit;
- yuklarni chet el tashuvchilarini orqali tashish.

Bu guruhlar orasidagi prinsipial farqlar yuklarni yetkazishdagi transport-texnologik sxemalarda, transport-ekspeditsiya xizmatlarini tashkil qilishda, tashish uchun pul to‘lash va ushbu jarayon qatnashchilarining o‘zaro hisoblashuvlarida ko‘rinadi.

Ulardan eng muhimi yuklarni yetkazishdagi transport-texnologik sxemalarining huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy jihatlarini farqlab beradigan guruhlar hisoblanadi.

Masalan, eksport-import tashishlarda yuk jo‘natuvchi va yuk qabul qiluvchi tovarni eksport yoki import qiluvchi davlat hududida, (masalan, O‘zbekistonda yoki dunyoning har qanday davlatida) bo‘ladi. Bu holda xalqaro aralash yuk tashishlar murakkab bo‘lib, bir necha transport turlari qatnashadi.

Shuning bilan birgalikda xalqaro tranzit yuk tashishlarda va chet el yuk tashuvchilarini ishtirokida yukni jo‘natuvchi hamda yukni qabul qiluvchi aniq bir mamlakatdan tashqarida bo‘lishi mumkin.

Ikkinci farqi yuk tashish bozorining shakllanishida. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yuk tashish eksport-import umumiyo bozori ekspeditorlarning aylanmasiga bog‘liq bo‘lmadan, balki yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitda mamlakatning tashqi savdo aylanmasi xajmlari bilan aniqlanadi. Xalqaro tranzit va chet el yuk tashuvlarida esa holat boshqacha. Yuk bozori mamlakatdan tashqarida shakllantiriladi va bu

mamlakatning iqtisodiy holatiga bog‘liq emas hamda aniq bir mamlakatning transporti tomonidan amalda o‘zlashtirishi mumkin bo‘lganidan katta xajmda bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, xalqaro tranzit yuk tashuvtariga va chet el tashuvtariga jalb qilinadigan amaldagi yuk xajmlari ularning transportlari texnik bazalari holatiga, kvalifikatsiyasiga, xalqaro tashuvchilar obro‘sisi va vijdoniga hamda davlat tomonidan to‘g‘ri boshqarilishiga bog‘liq.

Eksport-import xalqaro tranzit va chet el yuk tashuvtaridagi farqlardan yana bittasi ularning to‘lov uslublari va tashish uchun tariflarning shakllantirish prinsiplaridan iborat. Mavjud meyoriy xujjatlarga binoan aniq bir mamlakatning chegarasigacha bo‘lgan eksport tashuvtar va uning chegarasidan tashqaridagi import tashuvtar shu mamlakatning yuk tashuvchilari va transport vositalari yordamida tarif bo‘yicha milliy valyutada amalga oshirilishi ta’milnadi. Faqat chet ellik hamkor yuk importi bo‘yicha “frank –zavod tayyorlovchi” yoki eksport bo‘yicha “frank-qabul qiluvchi” ko‘rinishida o‘zining pul to‘lash istagini bildirsa, O‘zbekiston hududi bo‘ylab tashuv erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada to‘lovnini amalga oshirishi mumkin. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi hududida yuk olish jo‘natish chet el firmasi orqali amalga oshirilayotgan bo‘lsa ham to‘lov erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada amalga oshiriladi.

Xalqaro avtomobil yuk tashuvtarini rivojlanishi logistika prinsiplarining, jumladan “aniq o‘z vaqtida” texnologiyasi qo‘llanilishiga bog‘liq bo‘ladi. Agar transport vositalarining ishlamasdan turish vaqtlarini hisobga olsak, hozirgi vaqtida yuk tashish uchun ketgan aylanma vaqtning yarmigacha yetadigan holatlarda bu juda ham muhim. Yukni yuk tashuvchidan yuk qabul qiluvchiga topshirish vaqtida avtomobil bir necha sutka turib qolishi mumkin. Xuddi shuningdek, chegaradan o‘tish vaqtlarida ham to‘xtab turish vaqtleri bir necha sutkaga yetishi mumkin.

**Harakat davomidagi noqulayliklar,  
bojxona navbatlari va texnik nosozliklar tufayli yuk  
borish vaqt kechikadi**



Masalan O‘zbekiston-Turkiya xalqoro yo‘nalishida avtomobillarda yuk tashishda qilinadigan xarajatlar, olingan daromad va ko‘rilgan foyda. Har-xil sharoitlarni hisobga olgan holda quyidagicha bo‘ladi.

O‘zbekiston-Turkiya yo‘nalishida avtomobillarda yuk tashish-2000\$
Turkiya- O‘zbekiston yo‘nalishida avtomobillarda yuk tashish-6000\$
Borish qaytish yoqilgi I=8400km,
8400km 100km/40l=3 360l dizel 3360x9000=30240000=2700\$
Haydovchining kunlik extiyoji 30kun x 80ming=230\$
Yo‘l xarajatlari Sug‘urta boshqa tulovlar uchun 500\$
Haydovchining ish xaqqi 800\$, Oylik yo‘l varaqasi uchun dablat boji 100\$
Avtomobil texnik extiyojlariga 300\$
Urtacha daromad 8000\$, Xarajat-4630\$, Foya -3370\$

Bundan ko‘rinib turubdiki Turkiyadan O‘zbekistonga xalqoro yuk tashuvchilar kam, Turkiya xalqoro yuk tashivchilari evropa davlatlariga ko‘plab yuk tashiydi shuning uchun Turkiyadan O‘zbekistonga yuk tashish narxi yuqoriroq.

Xulosa. Maqolamning so‘ngida yana bir narsani takidlab o‘tishni lozim deb topdim. Xalqaro yunalishlarda avtomobil transportida davlat chegarasidan o‘tishda bojxona ko‘riklarini tezlashtirish yoki aniq chegaradan o‘tish miyoriy vaqtlnarni quyish. Xalqaro yuk tashishda avtomobil transportidan foydalanishda evropa talablariga javob beraoladigan transport vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi. Shunday mamlakatlar borki o‘zining xududida o‘zлari qabul qilgan evro talablarga javob bermaydigan avtotransport vositalarini harakatlanishiga ro‘xsat bermaydi. Shu sababli davlat chegaralarida avtomobil transportlarini ushlanib qolishi va tirbandligini oldi olinsa muommani echimiga erishgan bo‘lardik.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Б.А.Ходждаев, Г.Т.Закиров. Международные автомобильные перевозки. Ташкент, Издательство «ФАН» Академии наук Республики Узбекистан, 2005, 310 с.
2. Таможенная конвенция о международной перевозке грузов с применением книжки МДП (TIR CARNET) от 14.11.1975г.
3. Международные автомобильные грузовые перевозки. Учебное пособие/под редакцией Топалиди В.А., 2-е изд., доп. и перераб. Ташкент, 2005. Том I - 252 стр, Том II - 260 стр.